

Ishanova Barno Baxadirovna
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

KOLLABORATIV MUHIT YARATISH VA JAMOAVIY QARORLAR QABUL QILISH TIZIMI

Annotatsiya. Ushbu ishda zamonaviy ta'lim va boshqaruv tizimlarida kollaborativ muhit yaratish hamda jamoaviy qarorlar qabul qilish tizimining ahamiyati, tamoyillari va samarali qo'llanilish usullari tahlil qilingan. Kollaboratsiya – bu ishtirokchilar o'rtasida o'zaro hurmat, ochiq muloqot va umumiy maqsad yo'lida hamkorlikka asoslangan muhit bo'lib, u innovatsion fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali yechimlar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur mavzuda jamoaviy qarorlar qabul qilishning bosqichlari, rol va mas'uliyatlar taqsimoti, raqamli vositalar orqali qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda bu tizimni joriy etishdagi real amaliyot misollari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, qarorlar sifati va jamoa ishtirokchilarining motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yangi pedagogik yondashuvlar, sifati va samaradorlik, yangicha boshqaruv mexanizmlari, kollaborativ yondashuv, kollaborativ muhit, ta'limda samarali o'zgarishlar, ehtiyojlariga moslashish.

СИСТЕМА СОЗДАНИЯ КОЛЛАБОРАТИВНОЙ СРЕДЫ И ПРИНЯТИЯ КОЛЛЕКТИВНЫХ РЕШЕНИЙ

Аннотация. В работе анализируются важность, принципы и эффективные методы создания среды сотрудничества и систем коллективного принятия решений в современных системах образования и управления. Сотрудничество - это среда, основанная на взаимном уважении, открытом общении и сотрудничестве участников для достижения общей цели, которая играет ключевую роль в развитии инновационного мышления, творческих подходов и эффективных решений. В данной теме рассматриваются этапы коллективного принятия решений, распределение ролей и ответственности, поддержка с помощью цифровых инструментов, а также реальные примеры внедрения данной системы в образовательных учреждениях и организациях. Также была проанализирована взаимосвязь между качеством решений и мотивацией членов команды.

Ключевые слова: новые педагогические подходы, качество и эффективность, новые механизмы управления, совместный подход, совместная среда, эффективные изменения в образовании, адаптация к потребностям.

SYSTEM FOR CREATING A COLLABORATIVE ENVIRONMENT AND MAKING COLLECTIVE DECISIONS

Abstract. The paper analyzes the importance, principles and effective methods of creating a collaborative environment and collective decision-making systems in modern education and management systems. Collaboration is an environment based on mutual respect, open communication and cooperation of participants towards a common goal, which plays a key role in the development of innovative thinking, creative approaches and effective solutions. This topic examines the stages of collective decision-making, distribution of roles and responsibilities, support using digital tools, as well as real examples of the implementation of this system in educational institutions and organizations. The relationship between the quality of decisions and the motivation of team members was also analyzed.

Key words: *new pedagogical approaches, quality and efficiency, new management mechanisms, collaborative approach, collaborative environment, effective changes in education, adaptation to needs.*

Kirish. Ta'lim muassasalarida kollaborativ va ijodiy muhitni shakllantirish, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini oshirish bugungi ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatida ijodiy yondashuv va psixologik muhitning ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, AQShning Garvard universitetidagi Career Services markazi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab rahbarlarining 79,8% qismi ijodiy kompetentlikni belgilovchi asosiy omil sifatida sog'lom muhitni ta'kidlagan. Shuningdek, Singapurdagi Nanyang Texnologiya Universitetida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, maktab rahbarlarining 65,5% qismi boshqaruv jarayonida ijodkorlik muhim ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Bu esa shundan dalolat beradiki, umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvida kollaborativ muhitni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kollaborativ muhitni yaratish jarayoni ilmiy jihatdan asoslanishi kerak bo'lib, bu psixologiya, pedagogika va ta'lim menejmenti sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarga tayanishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining "2030-yilgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi" doirasida ta'lim boshqaruvining yangi tamoyillarini shakllantirish, maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktab rahbarlari uchun yangi kasbiy standartlar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli Prezident farmonida xalq ta'limi tizimini boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qator vazifalar, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Prezident farmonida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida ta'lim menejmentini modernizatsiya qilish va maktab rahbarlarining raqobatbardoshligini oshirish choralari belgilangan. Maktab boshqaruvida kollaborativ muhitni rivojlantirishga oid strategik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi, rahbarlarning ijodiy kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga oid empirik tadqiqotlar yetarli emasligi, ta'lim menejmentining zamonaviy talablariga mos keluvchi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ehtiyoji tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruratini yanada oshiradi.

Kollaborativ muhit - jamoa a'zolarining (o'qituvchilar, o'quvchilar, rahbariyat, ota-onalar va boshqalar) o'zaro ishonchi, o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashadigan, ochiq muloqot qiladigan, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qiladigan, **fikr almashadigan va qarorlar qabul qiladigan** ijtimoiy-psixologik va tashkiliy muhitdir.

Tahlil va natijalar. Ta'lim muassasasida kollaborativ muhitni yaratish uchun quyidagi bosqichlarni o'tash lozim:

1-bosqich. Ishonch va ochiqlik asoslarini yaratish. Bunda barcha ishtirokchilarga teng huquq va imkoniyatlar berilishi, ochiq va halol muloqotga sharoit yaratilishi, baholamasdan tinglash madaniyatini joriy etilishi bilan izohlanadi.

2-bosqich. Umumiy maqsadlarni belgilash. Mazkur bosqichda jamoa bilan birgalikda strategik yo'nalishlarni belgilash, har bir ishtirokchining ulushini aniqlashtirish inobatga olinadi. Boshqaruv samaradorligining asosiy omili sifatida umumiy maqsadlarni belgilash e'tirof etilmoqda.

3-bosqich. Kommunikatsion vositalarni yo'lga qo'yish. Bunda yig'ilishlar, forumlar, maslahat kengashlari, onlayn platformalar (Google Docs, Teams, Zoom va boshqalar) har bir xodim va ishtirokchi ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilishi kerak. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

4-bosqich. Hamkorlik asosida qaror qabul qilish. Bu bosqichda har bir muammo ustida jamoa fikr yuritishi, jamoaviy muhokama qilishi va takliflar kiritishi zarur. Qarorlar jamoaning fikriga tayangan holda qabul qilinadi.

5-bosqich. Faollikni rag'batlantirish. Jamoada qilinadigan har bir ish besamara bo'lmazligi zarur. Faol ishtirokchilarni e'tirof etilishi va motivatsiya berilishi zarur. Innovatsion takliflar uchun tanlovlar e'lon qilinishi va turli tipdagi mukofotlar bilan rag'batlantirilishi lozim.

6-bosqich. Tashqi hamkorlikni jalb qilish. Ta'lim muassasasida faoliyatni samarali tashkil etish uchun ota-onalar, jamoatchilik, nodavlat tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari va boshqa yondosh tashkilotlar bilan sheriklik shartnomalarini imzolash zarur. Buni isboti tariqasida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ta'lim muassasalarini baholash mezonlari"da innovatsion boshqaruv samaradorligini aniqlashning quyidagi ko'rsatkichlarini belgilangan:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablarga muvofiqligi;
- pedagog kadrlarning malaka darajasi;
- innovatsion loyihalar va dasturlarni amalga oshirish holati;
- ta'lim sifatini baholash natijalari;

- ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik darajasi (Tadqiqotimizga aloqador bo'lganligi sababli kursiv qilib belgiladik).

Shunday qilib, O'zbekistonda ta'lim tizimini innovatsion boshqarishning huquqiy-me'yoriy bazasi yaratilgan, tashkiliy tuzilmasi shakllantirilgan va rivojlanish istiqbollari belgilangan. Ammo ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish uchun kollaborativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro tajribani inobatga olgan holda yangi yondashuvlarni joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish talab etiladi.

Xulosa. Ta'lim muassasalarida samarali jamoaviy ishlash va boshqaruvning ahamiyati o'quv jarayonini samarali tashkil etish, maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Jamoaviy ish va boshqaruvning o'zaro aloqalari, kommunikatsiyaning yaxshi tashkil etilishi, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida qulay ijodiy muhit yaratishga yordam beradi. Bu esa ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli natijalarga erishishni ta'minlaydi. Jamoaviy ishlar, ya'ni o'qituvchilar, o'quvchi va boshqa xodimlar o'rtasida samarali hamkorlik muassasaning umumiy maqsadlariga erishishda zarur bo'lib, ta'lim jarayonida interaktiv yondashuvni ta'minlaydi. Jamoaviy ishlar orqali o'qituvchilar o'z tajribalarini va bilimlarini bo'lishadilar, shuningdek, o'quvchilarga ko'proq diqqat-e'tibor va individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балышев А.П. Коллаборативное обучение: к сущности понятия // Мир науки. Педагогика и психология World of Science. Pedagogy and psychology. 2023, Том 11, № 1. ISSN 2658-6282.

2. Незнанов А.А. и др. Коллаборативные технологии в образовании: как выстроить эффективную поддержку гибридного обучения? / А.А. Незнанов // Университетское управление: практика и анализ. — 2019. — Т. 23. — № 1–2. — С. 101–110.

3. Сеницына Г.П. Стратегия обучения в партнёрстве: коллаборативное обучение / Г.П. Сеницына // Наука о человеке: гуманитарные исследования. — 2019. — № 2(36). — С. 78–82.

4. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса / Н.В. Павельева // Образование. Карьера. Общество. — 2010. — № 3(29). — С. 30–37.

¹Куликов А.В. Системы дистанционного коллаборативного обучения и некоторые аспекты технологии их разработки / А.В. Куликов // Сборники конференций НИЦ Социосфера. — Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2012. — № 8. — С. 105–107.

5. Василенко Н.В. Институциональные особенности коллаборации в организационных структурах инновационной экономики / Н.В. Василенко // π-Economy. — 2016. — № 4(246). — С. 23.